“AQL MARKAZLAR”NING DAVLATLAR TASHQI SIYOSATIGA TA’SIR KO‘RSATISHI (AQSH MISOLIDA)

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada AQSh tashqi siyosatining shakllanishida “aql markazlar”ning (think tanks) roli va ularning strategik ta’siri tahlil qilingan. Muallif AQShda siyosiy pluralizm va raqobatning yuqori darajasi, shuningdek rasmiy va norasmiy institutlar faoliyati kontekstida tahlil markazlarning tashqi siyosat qarorlariga ta’sir qilish imkloniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada neokonservativ “aql markazlar”ning media platformalari orqali o‘z g‘oyalarini keng jamoatchilikka yetkazish, siyosatchilar ongini shakllantirish va siyosiy qarorlar qabul qilinishida bilvosita ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “Aql markazlar”, AQSh tashqi siyosati, neokonservativ yo‘nalish, siyosiy ta’sir, strategik kommunikatsiya, media va jamoatchilik fikri, Meros jamg‘armasi, Amerika Tadbirkorlik Instituti, ommaviy axborot vositalari, siyosiy pluralizm, tahliliy institutlar.

AQSh tashqi siyosat doktrinasini shakllantirish jarayonida ko‘plab nufuzli “aql markazlari” muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi institutlar turli mafkuraviy yo‘nalishlar va davlat idoralari talablariga moslashishga intilsa, boshqalar esa uzoq yillik va barqaror shakllangan mafkuraviy platformaga tayangan holda faoliyat yuritadi. Shunday bo‘lsa-da, ularning barchasining asosiy maqsadi AQSh tashqi siyosatining yo‘nalishini turli usullar orqali belgilash hamda shu sohada maslahatchilik xizmatlari bozorida raqobat ustunligini qo‘lga kiritishdir.

“Aql markazlar” ko‘pincha siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida boshqa manbalar, masalan, hukumat idoralari yoki siyosiy maslahatchilar bilan raqobatlashadi. Qaysi manba qaror qabul qiluvchilarga ko‘proq ta’sir qilishi esa, ko‘pincha ularning shaxsiy qarashlari va qaysi manbaga ko‘proq ishonishiga bog‘liq bo‘ladi [6].

“Aql markazlar”ning AQSh tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatish usullari va metodologiyasini tahlil qilganda, ular zamonaviy ilmiy g‘oyalarni siyosatchilarning ongiga yetkazuvchi eng muhim kanallar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu institutlar tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash hamda amaliy harakatlar rejasini ishlab chiqishda bevosita yordam ko‘rsatadi.

AQShda siyosiy pluralizm va raqobatning yuqori darajasi hamda rasmiy institutlar faoliyati doirasidagi norasmiy amaliyotlarning ustunligi AQSh tahlil markazlariga o‘z siyosiy faolliklarini samarali namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

AQSh tahlil markazlari odatda siyosiy qarorlar ishlab chiqish jarayoniga kirishish imkonini beradigan turli rasmiy kanallardan foydalanganlar. Masalan, ular rasmiy yo‘l sifatida parlament qo‘mitalari yoki hukumat komissiyalarining yig‘ilishlarida chiqishlar qilib, o‘z fikr va takliflarini bildiradilar [5].

D.Abelson ta’kidlashicha, agar “aql markazlar” mutaxassislari tomonidan ilgari surilgan takliflar siyosatchilar tomonidan inobatga olinmasa ham, bu takliflar orqali jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari va boshqa manfaatdor tomonlar mavjud muammo bo‘yicha boshqa fikr-mulohazalardan xabardor qilinadi [2]. Shuning uchun “aql markazlar” ekspertlari siyosiy rahbarlarning yakuniy qarorlariga bevosita ta’sir qilmasligi ularning butunlay ta’sirsiz ekanini anglatmaydi.

Rossiyalik tadqiqotchi D.G.Zaytsev “aql markazlar”ning siyosatga ta’sirini ularning mavjud resurslari asosida tahlil qilishni taklif etadi. Unga ko‘ra, bu resurslar quyidagilardan iborat: kadrlar va tashkilotchilik salohiyati, intellektual imkoniyatlar, moddiy resurslar, ijtimoiy kapital (aloqa va aloqadorlik), shuningdek, ramziy kapital, ya’ni obro‘-e’tibor va ishonch.

Umuman, AQShdagi neokonservativ “aql markazlar”ning siyosiy jarayonlarga, xususan, tashqi siyosiy qarorlar qabul qilishga ta’siri bir qancha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Ular AQSh tashqi siyosatining shakllanishida g‘oyaviy ildizlarni yaratishdan tortib siyosiy qarorlarning amalga oshirilishiga qadar keng va ko‘p qirrali ta’sir mexanizmlariga ega. Shunday ta’sir mexanizmlaridan biri sifatida ekspertlar ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etib, o‘z fikr va tavsiyalarini keng jamoatchilikka yetkazadilar. Bu orqali ular ijtimoiy fikrni boshqarish, siyosiy muhokamalarni shakllantirish va hukumat siyosatiga bosim o‘tkazishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Jamoatchilik fikrini shakllantirish va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish sohasida bir qator murakkab mexanizmlardan foydalaniladi. Neokonservativ “aql markazlar” o‘z ekspertlarining ommaviy axborot vositalarida doimiy faolligini kuchaytirish choralarini ko‘rishadi. Ular o‘z tadqiqot natijalari, maqolalari va intervyularini televideniye, radio, matbuot va zamonaviy raqamli platformalar orqali keng jamoatchilikka yetkazishga intiladi. Ushbu jarayon siyosiy qarorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun ijtimoiy sharoit yaratadi hamda jamoatchilik va siyosatchilar orasida o‘z ta’sir doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. Neokonservativ “aql markazlar” televideniye, gazeta va internet platformalarida siyosiy kun tartibini shakllantirishga faol harakat qiladi. Siyosatchilar uchun jamoatchilik fikrining ahamiyati katta bo‘lganligi sababli, ushbu institutlarning ommaviy axborot vositalaridagi ta’siri tashqi va ichki siyosat yo‘nalishlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bu boradagi yana bir jihat shundaki, “aql markazlar” faoliyatini baholashda muhim mezonlardan biri ularning mutaxassislari va tahlillarining ommaviy axborot vositalarida (OAV) qay darajada tilga olinayotganiga oid miqdoriy tahlildir. Mutaxassislarning fikrlari OAVda tez-tez aks ettirilishi ularning axborot manbasi sifatidagi obro‘si oshishi va ularning jamoatchilik va siyosiy muhitdagi ta’siri kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Biroq, ushbu ko‘rsatkich har doim ham “aql markazlar”ning haqiqiy samaradorligini to‘liq ifodalay olmaydi. Tadqiqot markazining OAVda keng yoritilishi ko‘pincha uning siyosiy elita bilan aloqalari, mafkuraviy yo‘nalishi, moliyaviy va tashkiliy resurslari, ishlash uslubi hamda dolzarb siyosiy masalalarga qanchalik e’tibor qaratayotganiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois ommaviy axborotdagi faollikni tahlil qilishda ushbu omillarni ham inobatga olish zarur.

“Aql markazlar” faoliyatining samaradorligini baholashda ularning nashrlari, maqolalari va tahliliy materiallari ham tahlil qilinadi. Odatda bu materiallarga siyosiy qaror qabul qiluvchilar tomonidan bevosita e’tibor bo‘lmasligi mumkin. Ba’zan bu hujjatlar ularning yordamchilari yoki maslahatchilari tomonidan o‘qiladi va shu orqali “aql markazlar” siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bilvosita ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shu sababli “aql markazlar” tomonidan tayyorlangan tahliliy materiallar soni va ularning mazmuni ham samaradorlikni baholashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi [6;48]. Masalan, Amerika tadbirkorlik tnstituti (AEI) va Demokratiyalarni himoya qilish jamg‘armasi (FDD) vakillari “CNN”, “Fox News” va “The Wall Street Journal” kabi platformalarda muntazam ishtirok etadi. Meros jamg‘armasi va Amerika tadbirkorlik tnstituti (AEI) ekspertlari esa doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida ko‘rinish berib, neokonservativ g‘oyalarni targ‘ib qilgan.

“Meros jamg‘armasi ekspertlari ommaviy axborot vositalarida faol bo‘lib, siyosiy axborot maydonini neokonservativ nuqtayi nazardan to‘ldiradi. Bu ommaviy fikrni o‘z foydasiga shakllantirishga yordam beradi”. Bundan tashqari, Meros jamg‘armasi ekspertlari muntazam “Fox News”, “The Washington Post” va “The Wall Street Journal” kabi nashrlarda maqolalar chop etib, neokonservativ tashqi siyosatni himoya qilib keladi. Meros jamg‘armasining o‘zi ham ommaviy axborot vositalari orqali milliy xavfsizlik va erkinlik g‘oyalarini targ‘ib qilishi, bu esa siyosiy qarorlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ochiq e’tirof etadi[4].

1990-yillarning oxirlarida AQSh ommaviy axborot vositalarida olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko‘rsatdiki, 1991-1996-yillar oralig‘da yetti yetakchi milliy gazeta – “The New

York Times”, “The Washington Post”, “The Wall Street Journal”, “The Christian Science Monitor”, “The Washington Times” va “USA Today” sahifalarida konservativ yo‘nalishga ega ekspert-tahlil markazlar liberal qarashlarni ilgari suruvchi tashkilotlarga nisbatan ko‘proq qayd etilgan. E’tiborli jihati shundaki, ushbu tendensiya siyosiy hokimiyatda Respublikachilar yoki Demokratlar partiyasi hukmronlik qilgan davrda ham uzluksiz davom etgan.

E.Rich va K.Uiver tomonidan 1991-1996-yillarda AQShda faoliyat yuritgan 43 ta eng obro‘li tahliliy markazga oid manbalar soni o‘rganilgan. Ushbu manbalar yuqorida tilga olingan olti milliy gazetada chop etilgan bo‘lib, har bir markaz uchun nashr hajmi hisobga olinib, besh yillik davrda hisoblangan. Olingan natijalarga ko‘ra, mafkuraviy yo‘nalishi aniq bo‘lmagan tahlil markazlar ommaviy axborot vositalaridagi umumiy manbalarning taxminan yarmidan ko‘prog‘ini tashkil qilgan, bu esa ularning tahlil markazlar orasidagi ulushiga mos keladi. Konservativ yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot institutlari esa o‘rtacha hisobda liberal tashkilotlarga qaraganda to‘rt barobar ko‘proq e’tibor qozongan. Ushbu farq ommaviy axborot vositalarining konservativ tahlil markazlarga nisbatan tarafkashligi bilan emas, balki konservativ markazlarning liberal raqobatchilariga nisbatan ancha katta moliyaviy resurslarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Kengroq moliyaviy imkoniyatlar ularga ko‘proq mutaxassislarni ishga olish, muammolarni chuqurroq o‘rganish va kengroq ta’sir doirasiga ega bo‘lish imkonini beradi. Qiziqarli tomoni shundaki, konservativ tahlil markazlarning liberal tashkilotlarga nisbatan ustunligi hatto Oq uy Demokratik partiya nazoratida bo‘lgan davrda ham saqlanib qolgan.

FAIR (“Fairness & Accuracy In Reporting”) guruhi 1999-2000-yillarda nashr etgan “Center/Right Think Tanks Dominate News”[3] sarlavhali tahlilini e’lon qilgan. Ularning analizida 25 ta yetakchi “aql markazlar” media ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘rganilgan. 1999-yilda mediada iqtibos berilgan 25 ta eng ko‘p tilga olingan “aql markazlar” orasida o‘ng tomonga (konservativ) mansub institutlar umumiy iqtiboslarning 51% ini tashkil etgan. Markaziy yo‘nalishdagi think-tanklar 35 %, progressive-chap yo‘nalishdagi think-tanklar esa atigi 13% olgan. 1997 bilan taqqoslaganda, konservativ -o‘ng yo‘nalishdagi iqtiboslar ulushi biroz kamaygan, ya’ni 1997-da u 53% bo‘lgan, lekin chap taraf 16% dan 13% ga tushgan. Umuman olganda, 1997-1999 yillarda media “aql markazlar”ga bo‘lgan ishonchi va murojaatlari ortgan: iqtiboslar soni 14 623 dan 17 449 ga oshgan. Tahlilda ko‘rsatilishicha, eng ko‘p media iqtibosiga ega to‘rt institut quyidagilar: Brookings Institution (markaziy), Cato Institute (konservativ), The Heritage Foundation (konservativ), va American Enterprise Institute (konservativ). Bu to‘rt institut mediada jami iqtiboslarning 40% ini tashkil etgan. Bu tahlil shuni ko‘rsatadiki 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshida AQSh media maydonida konservativ yo‘nalishdagi “aql markazlar” (shu jumladan “The Heritage Foundation”, “Cato Institute”, “American Enterprise Institute” va boshqalar) liberal yo‘nalishdagi institutlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega bo‘lgan.

Ayrim tahliliy manbalarga ko‘ra, XXI asr boshlariga kelib kun tartibidagi eng dolzarb masalalar yuzasidan neokonservativ “aql markazlar” tomonidan tayyorlangan maqolalar soni va ularning umumiy nisbatdagi ulushi quyidagi jadvalda aks etgan (1-jadvalga qarang):

1-jadval [1]

Neokonservativ “aql markazlar” tomonidan tayyorlangan maqolalar soni va ularning umumiy nisbatdagi ulushi

Tahliliy markaz	Iroq	Afg‘oniston	11-sentabr (teraktlar)	“Al-Qoida”	Terrorizm	Raketaga qarshi mudofaa	Jami	Umumiy ulushi (%)
Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC)	60	28	37	20	52	12	209	1,01%
Gudzon instituti	104	50	97	32	158	30	471	2,27%

Xavfsizlik siyosati markazi (CSP)	147	31	81	47	191	66	563	2,71%
Guver instituti	324	125	211	84	354	38	1136	5,47%
Amerika Tadbirkorlik Instituti (AEI)	633	181	401	146	629	61	2051	9,87%
Meros jamg‘armasi	544	245	386	150	685	119	2129	10,25%
Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi (CSIS)	742	327	362	231	754	73	2489	11,98%

Umuman, ko‘plab tahlil markazlar uchun ommaviy axborot vositalari ularning tadqiqotlari va g‘oyalarini tarqatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Masalan, Meros jamg‘armasi media bilan aloqalarni rivojlantirishga katta mablag‘ sarflaydi. 2003-yilda bu maqsad uchun 6,6 million dollar, 2009-yilda esa 14,7 million dollar sarflangan. Shunday qilib, tahlil markazlar siyosatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilmasa ham, strategik kommunikatsiyalardan foydalanib, ommaviy fikrga ta’sir o‘tkazadi va siyosiy qarorlar qabul qilinishida ommaviy axborot vositalari orqali samarali rol o‘ynaydi.

Demak, “aql markazlari” AQSh tashqi siyosatining shakllanishida strategik yo‘nalishlarni belgilash, siyosatchilar ongini yangi g‘oyalar bilan boyitish va siyosiy qarorlarni qo‘llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati va ta’siri nafaqat AQShda, balki butun dunyoda global siyosat tendensiyalarini aniqlashda ham namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilganda, ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etish orqali neokonservativ “aql markazlar” o‘z siyosiy kun tartibini belgilashga intiladi. Media platformalaridan foydalangan holda ijtimoiy ongni shakllantiradi va siyosiy mavzularni tahlil qiladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali raqamli kommunikatsiya usullaridan keng foydalanish, ayniqsa so‘nggi o‘n yillikda, ularning siyosiy ta’sirini sezilarli darajada kengaytirdi. So‘rovnomalar va ijtimoiy tadqiqotlar tahlil markazlarga siyosiy muhitni monitoring qilish va o‘z kommunikatsiya strategiyalarini dinamik tarzda moslashtirish imkonini beradi. Bu holat “qayta aloqa” mexanizmini yaratib, “aql markazlar”ning auditoriya ehtiyojlari va siyosiy vaziyatga tezkor javob berishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abelson D.E. A Capitol Idea. Think Tanks & US Foreign Policy. – Montreal; Kingston: McGill-Queens University Press, 2006.

2. Abelson D.E. Is Anybody Listening? Assessing the Influence of Think Tanks // Adolfo Garcé and Gerardo Uña. Think Tanks and Public Policy in Latin America: Global Dynamics and Regional Realities. – Buenos Aires: Center for the Implementation of Public Policies Promoting Equity and Growth, 2010.– P.13.

3. New Study: Center/Right Think Tanks Dominate News / FAIR. – 13 June 2000. // https://fair.org/press-release/new-study-centerright-think-tanks-dominate-news

4. The Heritage Foundation backs phasing out Israel aid to ‘reduce US leverage’ / Fox News Digital. – 2025. – Fox News Digital.// https://www.foxnews.com/politics/direct-aid-israel-should-phased-out-reduce-us-leverage-influential-conservative-groups-argue?utm_source

5. Адил Ч. «Мозговые центры» и политический процесс: роль и значимость в принятии решений // Вестник Забайкальского государственного университета. – 2019. – Т. 25. – № 4. – С.75-85.

6. Адил Ч. Роль экспертно-аналитических центров в принятии внешнеполитических решений: опыт России и Польши: дис. … канд. полит. наук. – Нижний Новгород, 2025.